

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Узакова Зарина КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО-ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
2. Ernazarov Behzod MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
3. Nematova Dilfuza QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI.....	21
4. Kayumov Kaxramon ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
5. Ibragimov Murodjon JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
6. Dulanboeva Oygul G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
8. Ziyayeva Xolida ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
9. Азизова Нодира СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
10. Nodira Alimukhammedova PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
12. Убайдуллаева Р.Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Dulanboeva Oygul

O'zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

G'ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473387>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijodkorlar sotsial qiyofasining tarixiy transformatsiya jarayonlari retrospektiv usul asosida manbalarga tayangan holda ochib beriladi. Bunda Sharq va G'arb sivilizatsiyalaridagi ijodkorlar sotsial qiyofasining o'zgarib borish jarayonlari davrlar kesimida qiyosiy tahlil qilinadi. Jumladan, qadimgi Xitoy, qadimgi Hind, arab-musulmon sivilizatsiyalari hamda Yevropa renessansidan to zamonaviy davrgacha xususan sobiq sovet zamonidagi ijodkorlar sotsial qiyofasining evolyutsiyasiga diqqat qaratiladi. Shuningdek, musulmon Sharq shoir ijodkorlarining sotsial qiyofasi transformatsiyasi, ularning jamiyat madaniy hayotidagi roli tadqiq etiladi. Qolaversa, jadid ijodkorlarining sotsial statuslari, rollari, qadriyatiy mo'ljallari dinamikasi ochib beriladi. Bundan tashqari, ijodkorlarning jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotidagi faolligi, jamoatchilik fikri yetakchisi sifatidagi o'rniga xam e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: retrospektiv yondashuv, sotsial qiyofa, she'r, modernistik yondashuv, axborotni uzatish, ijtimoiy elita, renessans, Sharq sivilizatsiya, G'arb sivilizatsiyasi.

Дуланбоева Ойгул

Национальный университет Узбекистана
Преподаватель кафедры социологии,
доктор философии социологии (PhD)
e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

ЭВОЛЮЦИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СОЦИАЛЬНОМ ОБРАЗЕ ТВОРЦА НА ЗАПАДЕ И ВОСТОКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрыты процессы исторической трансформации социального портрета творческих лиц при помощи ретроспективного метода на основе конкретных источников. При этом осуществлен сравнительный анализ процессов изменения социального портрета творческих лиц в Восточной и Западной цивилизациях с их разделением на определенные периоды. В частности, обращено внимание на эволюцию социального портрета творческих лиц Древнего Китая, Древней Индии, арабо-мусульманской цивилизации, а также Европейского Ренессанса вплоть до периода бывшего Союза. Также, рассматриваются в динамике социальные статусы, роли, ценностных ориентации поэтов-джадидов. Кроме того,

анализируется роль и значения социально – политической активности творческой молодежи в общественной жизни общества.

Ключевые слова: ретроспективный подход, социальный портрет, стих, модернистский подход, передача информации, социальная элита, Ренессанс, Восточная цивилизация, Западная цивилизация.

Dulanboeva Oygul

National University of Uzbekistan
Lecturer at the Department of Sociology,
Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)
e-mail: oyguldulanboeva@mail.ru

THE EVOLUTION OF IDEAS ABOUT THE SOCIAL IMAGE OF THE CREATOR IN THE WEST AND EAST

ABSTRACT

This article reveals the processes of historical transformation of the social portrait of creative individuals using a retrospective method based on specific sources. At the same time, a comparative analysis of the processes of change in the social portrait of creative individuals in Eastern and Western civilizations was carried out, dividing them into certain periods. In particular, attention is paid to the evolution of the social portrait of creative individuals of Ancient China, Ancient India, Arab-Muslim civilization, as well as the European Renaissance up to the period of the former Soviet Union. And the dynamics of social status, roles, and value orientations of Jadid poets are also considered. In addition, the role and significance of the socio-political activity of creative youth in the public life of society is analyzed.

Key words: retrospective approach, social portrait, verse, modernist approach, transmission of information, social elite, Renaissance, Eastern civilization, Western civilization.

KIRISH

Ijodkorlarning jamiyatdagi sotsial statusi rollari, ijtimoiy-siyosiy faolligi, qadriyatini mo'ljallari, motivlari, bo'sh vaqtni sarflash va boshqa xususiyatlari ularning sotsial qiyofasini belgilaydi. Ma'lumki, ushbu jarayon kishilik jamiyatining turli davrlarida turlicha baholangan. Jamiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda shakllanganligi, undagi qadriyatlar tizimi, urf-odat, an'analar, stereotiplar, xulq-atvor standartlari ijodkor sotsial qiyofasining shakllanishiga asos bo'ladi. Ushbu omillar bilan bir qatorda san'atning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy funksiyalari ijodkor statusi, rollarini ijtimoiy siyosiy faolligini, boshqacha qilib aytganda, uning sotsial qiyofasi o'zgarishini, transformatsiya bo'lishini ta'minlaydi.

Bu ma'noda san'atning, xususan adabiyotning jamiyatga ijtimoiy-regulyativ ta'sirining ahamiyati muhim ekanligi qadimgi davrlardan ma'lum. Mutafakkirlar, faylasuflar, shoirlar badiiy adabiyotning inson hayotidagi o'rni, shoir yozuvchilarning jamiyatdagi maqomi, ularning ijod erkinligi kabi muammolar haqida turli mulohazalarni bildirib o'tganlar. Xitoyning eramizdan avvalgi XXII asrga nisbat beriluvchi qadimgi manbaasi "Shu-King" kitobida bu borada quyidagi mulohazalar keltirib o'tilgan: "She'riyat va musiqa insonni ko'ngilchan, biroq qat'iyatli, mehribon, ammo matonatli, mulohazali, lekin shijoatli qilib tarbiyalaydi" [1; 89].

Qadimgi Xitoy faylasufi Kun-Fu-Szy (Konfutsiy) inson hayotiga she'riyat ta'sirining to'rtta shaklini ajratib ko'rsatadi:

1. "She'riyat, "Sin"ni mustaxkamlaydi, oqibatda u hissiyot va aqlga ta'sir ko'rsatadi;
2. U "Syun" shaklida insonlarni o'zaro jipslashtiradi;
3. U "Guan" shaklida turli xalqlarning axloqi haqida tasavvur beradi;
4. U "Yuan" shaklida hukmdorlarning ko'nglini yumshatadi" [1; 89].

Keltirilgan mulohazalarga asoslanib aytish mumkinki, san'at, xususan badiiy adabiyot inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni regulyativ va manipulyativ vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Ushbu omillardan kelib chiqqan holda, shoirlarning jamiyatdagi roli turli davrlarda va turli

ijtimoiy tizimlarda turlicha kechgan degan xulosaga kelish mumkin. Jamiyatlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyatlar, din, qadriyat, an'analar shoir statusini ijtimoiy iyerarxiya bo'ylab turli pozitsiyalarni egallashga majbur qilgan.

Antik davr jamiyatida ijtimoiy nufuz sanalgan aqliy mushohada mashg'uloti bilan shug'ullanish o'z mehnati evaziga foyda olish dastlabki paytlarda qoralangan. Shu bois antik davr shoirlari jamiyat ijtimoiy iyerarxiyasida quyi pozitsiyalardan joy olganlar. Bu davrda intellektual qatlam sifatida shoirning sotsial statusi quyidagi ikki omilga bog'liq bo'lgan:

1. O'z ijodini beg'araz amalga oshirish. Unga ko'ra, shoir uchun avvalambor ijodiy erkinlik, aqliy mushohada birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan;
2. O'z ijodi evaziga xaq olish. Ushbu yo'lni tanlagan shoir jismoniy mehnat qiluvchi fuqarolar bilan tenglashtirilgan u oliy tabaqa vakillari uchun uyushtirilgan tadbirlarda ishtirok etolmagan.

Keyinchalik Afina demokratiyasi natijasida badiiy ijodkorlar, ayniqsa, tragediya janrida ijod qilgan shoirlar intellektual nuqtai nazardan sezilarli nufuzga ega bo'lishgan. Yevripid, Sofokol, Aristafan kabi shoirlar aynan Afina demokratiyasi davrida ijod qilib, yuqori ijtimoiy mavqeyiga erishganlar. Shuningdek, dramaturg shoirlar donishmandlar sifatida ham e'tirof etilgan. Bu ma'noda faylasuf va shoirlarning o'zaro raqobati kuzatiladi. Masalan, Platon—"she'riyatni haqiqiy san'at sifatida baholash kerakmi, yo'qmi?" degan savolga javob berish bilan birga, shoirning o'sha davrda mavjud bo'lgan, (donishmandlik otasi, yo'l boshlovchi) kabi ijtimoiy funksiyasi" [2; 251] haqidagi tasavvurlarni tanqid qiladi.

Shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimki, antik davr intellektual nuqtai nazaridan, o'rta statistikadagi yunon uchun shoir chindan ham, yo'l ko'rsatuvchi sifatida qabul qilingan. Misol uchun Gomerning dostonlari nafaqat muayyan qofiya va vazndan iborat she'rlar to'plami, balki, harbiy va davlat boshqaruvida dasturi amal tarzida ham qo'llanilgan. Bundan tashqari, yunonlar Xudolarga murojaat, shaxslararo munosabatlar, his-tuyg'ular, kundalik hayot masalalari haqida ma'lumotlarni aynan Gomer, Gesiot va boshqa dramaturglarning asarlaridan olganlar. Shu bois shoirlar ijtimoiy munosabatlarning bilimdoni, o'ziga xos eksperti deya tan olingan.

Biroq, Platon o'zining dastlabki dialoglari sanaluvchi "Suqrot apologiyasi"dan, to "Qonunlar" gacha bo'lgan asarlarida shoirlarni tanqid qiladi. Masalan u "Davlat" dialogida quyidagi fikrlarni keltiradi:

"Ular juda chiroyli va go'zal so'zlaydilar, ammo bilmagan narsalari haqida so'zlaydilar" [3; 318]

Platondan farqli ravishda Aristotel she'riyatning katarsis, aniqrog'i forig'lantiruvchi xususiyatiga e'tibor qaratadi. "Tarixchilardan farqli shoirlar, deb yozadi Aristotel, - real voqeiylik haqida emas, balki ehtimoliy (potensial) hodisalar haqida yozadi. Shu bois she'riyat falsafaga yaqin. Ideal polis fuqarolarini tarbiyalashda esa shoirlarning ahamiyati katta" [4; 45].

O'rta asrlar G'arbiy Yevropa jamiyatida xristianlik ta'limoti inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi. Tabiiyki san'at, shu jumladan badiiy adabiyot ham, cherkov an'analari doirasida namoyon bo'ldi. Bu ma'noda ijodkor, ya'ni shoirning funksiyasi diniy ma'no kasb etdi. Cherkov o'rnatgan senzura, ayniqsa antik davr san'atida keng tarqalgan, shoir statusini ijodiy erkinlik nuqtai nazaridan cheklab qo'ydi. Cherkov otalari, xususan, Avliyo Avgustin har qanday lazzatlanish, shuningdek, san'atdan lazzatlanishni ham diniy aqoidga zid deya e'lon qildi. Avgustinga ko'ra: "Antik davr shoirlari behuda vaqt o'tkazish bilan mashg'ul bo'lganlar. Shoir uchun yagona maqbul mashg'ulot bu, "Bibliya"ni talqin qilishdan iborat. Muqaddas kitobdagi ilohiy mohiyat shoir aqlidagi behayo, behuda fikrlarni siqib chiqarishi lozim" [5; 139].

O'rta asrlarning oxirlariga kelib, san'atning asta-sekinlik bilan ixtisoslashuvi natijasida, cherkov tomonidan o'rnatilgan senzura yumshatila boshladi. O'z navbatida ijodkorning ham shaxsiy mas'uliyati ortdi. Biroq, ushbu erkinlik ham iyerarxik ko'rinishga ega bo'lib, unda rassom va haykaltaroshlarning nufuzi balandroq edi. "Chunki mazkur ijodkorlar asosan cherkov buyurtmasini bajarishardi" [6; 166]. Biroq ushbu nisbiy erkinlik ham ijodkorni "mohir usta" maqomidan nariga o'tkazmadi. Adabiyot teologiyadan, tasviriy san'at xunarmandchilikdan ajratilmadi. Oqibatda ijodkor tom ma'nodagi erkinlikka, yaratuvchi, ijodkor shaxs statusiga ega bo'lmadi.

Uygʻonish davri gumanizm tamoyilida ilgari surgan goʻzallik, uygʻunlik, inson ezguligi kabi gʻoyalari ijodkor va sanʼatga nisbatan yangicha dunyoqarashni shakllantirdi. Bu jarayon keyinchalik ijodkor, jumladan shoir yozuvchilarni oʻziga xos intellektual qatlam sifatida shakllanishi uchun zamin yaratdi. Aynan Yevropa Renessansi davrida sanʼat fanga tenglashtirildi. Tarixchi olim P.P.Gaydenka taʼbiri bilan aytganda, “Inson muayyan sanʼat asari yaratarkan, uning bu ishi yaratguvchiga taqlid sifatida qabul qilindi” [7; 516].

Sanʼatga nisbatan ushbu yondashuv, tabiiyki ijodkorni, xususan shoirning jamiyatdagi ijtimoiy oʻrnini belgilab berdi. Uygʻonish davri gʻoyalari nuqtai nazaridan shoirning bosh maqsadi insonni insonparvarlashtirish boʻldi. Shoir birinchi navbatda kishilarga maʼrifat ulashishi kerak. “Chunki, ruhoniyning vaʼzi yoki faylasufning ogʻir taʼlimotidan koʻra sheʼr inson ongiga tez taʼsir qiladi” [8; 276].

Bu oʻrinda faylasuf B.Varkining quyidagi fikrlarini ham keltirish mumkin: “shoirning maqsadi inson ruhini forigʻlantirish boʻlib, u bu maqsad yoʻlida taqlid qilishi, mubolagʻa qilib, yolgʻon gapirishi ham mumkin, ammo uning natijasida kishilar oʻzini baxtli his qilsin” [9; 53]

Yuqorida aytib oʻtilganidek, Renessans gʻoyalari ijodkorni “usta” maqomidan olib chiqdi. Ayniqsa, tasviriy sanʼat va adabiyot hunarmandchilik va teologiyadan xalos boʻlib, mustaqil faoliyatga aylandi. Natijada ijodkorlar jamiyatda oʻziga xos intellektual qatlam sifatida shakllandi. Yevropa madaniyatida shoir, yozuvchilarning sotsial qiyofasi muayyan shakl kasb eta boshladi. Ularning xulq-atvori, xatti-harakatlari oʻrta statistikadagi kishi uchun qabul qilingan xulq-atvor standartlaridan farq qildi. Petrarko, Dante, Bokkachcho kabi shoirlarning hayot tarzi haqidagi esdaliklar bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Ijodkorning har bir asari yaxlit olam, yoki borliqning mukkamal inʼikosi, genial aql mahsuli sifatida baholandi. Natijada Oʻrta asrlar jamiyatida marginal deb qaralgan ijodkor, Uygʻonish davriga kelib ijtimoiy elitaga mansub boʻldi. Oʻrta asrlar shoir sotsial qiyofasidagi shakkoklik, behayolik sifatida namoyon boʻlgan xususiyatlar Uygʻonish davrida oʻziga xoslik, individuallik sifatida maʼno kasb etdi. Endilikda shoir reflektiv xulq-atvordan koʻra, meditatif sokinlik, mushohadaga boy oʻychanlik kabi xususiyatlarni oʻzida namoyon etdi.

XVI-XVII asrga kelib Yevropa madaniyatida sanʼat gumanistik gʻoyalari taʼsiridan voz kecha boshladi. Fan va sanʼat alohida sohalar sifatida tarmoqlarga ajratildi. Barcha sanʼat turlarida klassitsizm, romantizm kabi oqimlar yuzaga keldi. Insondagi tafakkur va his-tuygʻular bir-biriga qarama-qarshi qoʻyildi. Oʻz navbatida bu jarayonlar taʼsirida ijodkorning ijtimoiy roli, sotsial qiyofasi yangicha mazmun kasb etdi. Fransuz shoiri La Fonten taʼbiri bilan aytganda, “aynan klassitsizm adabiyoti tragediya, komediya, oda, masal, ertak kabi janrlarni keskin boʻlinishiga olib keldi. Bu boʻlinish sof estetik mazmundan koʻra, ijtimoiy ahamiyatga ega edi. Chunki klassitsizm adabiyotining maqsadi insonni tarbiyalash boʻlib, unda abstrakt insondan koʻra, fuqaro nazarda tutiladi. Fuqaro uchun esa burch har qanday shaxsiy manfaatdan ustun turadi” [9; 53].

XVIII asr oxiri Yevropa ijtimoiy hayoti va madaniyatidagi oʻzgarishlar kishilar dunyoqarashida keskin burilish yasadi. Inson va uning tafakkuri imkoniyatlariga ishonch turli pozitsiyadagi ijodkorlarni birlashtirdi. Ratsionalizm gʻoyalari taʼsirida vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlar fransuz maʼrifatparvarlari faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, aynan fransuz maʼrifatparvarlarining Volter, Russo, Monteske, Didro kabi yetakchilari adabiyot sohasida ham faoliyat yurituvchi ijodkorlar edilar. Bu maʼnoda shoir, yozuvchining jamiyatdagi roli fan taraqqiyotiga ishonch, sekulyarizm kabi qarashlarni xalqqa targʻib qilishdan iborat boʻldi. Aynan shu davrga kelib, faylasuf, olim, shoir va yozuvchilarning turli uyushmalari instiutsional ahamiyat kasb eta boshladi. “Sanʼat va madaniyatning jamiyatdagi oʻrni akademiyalarga birlashishda aks etdi. Akademik iyerarxiyalarga aʼzolik ijodkorga katta imkoniyatlarga ega boʻlishni taʼminladi” [10; 67].

Mazkur davrda akademiyalarning imkoniyatlari barcha hududlarni qamrab ololmas, shu bois ularni oʻzi ham, qoʻllab-quvvatlashga muhtoj edi. Uygʻonish davrida tashkil etilgan metsenatlik institutini ham ijodkorning jamiyatdagi maqomiga taʼsir koʻrsatuvchi tizimlardan biri sifatida koʻrsatish mumkin. Ushbu institut ijodkorga qirol saroylaridagi turli mansablardan tortib, har xil darajadagi imtiyozlar va buyurtmalarni koʻlga kiritish imkoni berardi.

“Yevropa qirollari saroyida yozuvchi shoirlar asosan kamerdiner, shoir, kotib kabi lavozimlarda faoliyat yuritganlar” [11; 83]. Ijodkor va rahbar, ya’ni buyurtmachi o’rtasida o’ziga xos muvozanat saqlangan. Bu o’rinda metsenatning vazifasi, shoirni kerakli lavozimga tavsiya qilishdan iborat bo’lgan. O’z navbatida shoir ham, buyurtmachidan doimiy ish haqini kafolatlashni so’ragan. “Bir so’z bilan aytganda metsenat ijodkorning individual qobiliyati, malakasini baholay olgan. Ayrim istisnolarni inobatga olmagan, ijodkor ham, ortiqcha imtiyozlarni talab qilmagan. U avvalambor iqtisodiy erkinlikni ma’qul ko’rgan” [11; 83].

XIX asrga kelib, ayniqsa Belgiya, Gollandiya qirolligida “erkin ijodkor” konsepsiyasi ilgari surildi. Ushbu konsepsiya ijodkorni har jihatdan, iqtisodiy, estetik tomonlama buyurtmachiga qaram bo’lishdan muhofaza qilardi. Unga ko’ra ijodkor anonim buyurtmachi uchun ijod qildi. Bozor qonunlariga asoslangan bu munosabat, muallifni estetik va moliyaviy jihatdan erkin ijodkorga aylantirdi. “Oqibatda shoirlar metsenatning estetik bilim darajasiga sabr qilishdan ozod bo’lib, o’z ideallari va maslaklariga ko’ra ijod qildilar. Lekin bu erkinlik bozor qonunlari bilan chegaralandi” [12; 35].

Gollandiyada tajriba sifatida ko’rilgan ushbu konsepsiya yangi davr madaniy hayotining mahsuli bo’lgan, ijodkor va sotsium o’rtasidagi zamonaviy modelni yaratishga zamin hozirladi.

“Erkin ijodkor” konsepsiyasi XIX asr Yevropa madaniy hayotida o’ziga xos qat’iy stereotip yaralishiga sabab bo’ldi. Ushbu madaniy stereotip ijodkorni mutlaq erkin shaxs sifatida ko’rishni nazarda tutardi. Biroq, ijodkor va san’at o’rtasidagi munosabat kutilgan natijani bermadi. “Erkin ijodkor” tushunchasi sotsial nuqtaiy nazardan mavhumligicha qoldi. Zero ijodiy faoliyat prinsipial jihatdan hunarmandchilikdan ham yoki muayyan xizmat turidan ham alohida mustaqil faoliyat deya baholandi. XIX asrdayoq saroy shoiri, saroy bastakori lavozimlari o’tmishga aylandi. Vujudga kelgan yangi ijtimoiy tizim shoirga ijodidan muayyan professiya, ya’ni kasb sifatida foydalanishdan boshqa imkoniyat qoldirmadi. “Ijodkor professional sifatida o’z ijodidan kelgan foyda evaziga kun kechirishga majbur bo’ldi. Bu jarayon uni san’atdan tijorat maqsadida foydalanishga, yoki muayyan siyosiy guruhlarining targ’ibot vositasi bo’lishga undadi. Ushbu ikki holat ham erkin ijodkor g’oyasiga mos kelmasdi” [13; 74].

Ijodkor sotsial qiyofasini miflashtirish jamiyatdan ajralib turish, sotsial me’yorlarga isyon, xos doiralarning ommaga o’xshamagan xulq-atvori haqidagi qarashlarni shakllantirdi. Ijodkor subyektivligini bu darajada mutlaqlashtirish, san’atning ijtimoiy ahamiyatini pasayib borishiga hamda muallifni jamiyatga qarshi pozitsiyada qolishiga olib keldi. Shaxsning utiletarizm va egoizm ta’sirida qolishi ijodkorni estetik qadriyatlarini yoqlovchisi sifatida ideallashtirdi. Bu ma’noda XIX asr Yevropada ilgari surilgan g’oyalar individ va jamiyatni o’zaro qarama-qarshi qo’yish natijasida yuzaga kelgan inqirozdan chiqishga intilishni ifodaladi. Mazkur inqirozning yechimi sifatida klassik sotsiologlar yaratgan “solidarlik” konsepsiyasi taklif etildi. Unga ko’ra, K.Sen-Simon, Sh.Fure, P.Prudon, O.Kont hamda E.Dyurgeym san’atni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida jamiyatdan ajratmadilar. Masalan, Prudon ijodkorning jamiyatdagi funksiyasini quyidagicha qat’iy belgilab ko’rsatadi: “Biz shoir, rassom yoki bastakordan ularning shaxsiy his-tuyg’ularini so’ramaymiz. Ular o’zlari uchun emas, biz uchun yozadilar, chizadilar va kuylaydilar. Chunki san’at insoniyat ijtimoiy hayotining yodgorligidir, u insoning real voqelikka nisbatan reaksiyasi natijasida vujudga keladi. Ana shundagina san’at o’zining sotsio-madaniy funksiyasini namoyon qiladi” [14; 475].

Sharq jamiyatlarida, xususan musulmon Sharq mamlakatlarida shoir statusi, she’rning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati G’arbona qarashlardan o’ziga xos darajada farq qilgan. Bu ma’noda G’arb va Sharq tafakkur tarzini qiyosiy tahlil qilish yurtimiz tarixida, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari hayotida shoir statusining ahamiyatini uning o’ziga xos transformatsiya jarayonlarini kuzatishga imkon beradi.

Sharqda she’riyat nafaqat san’at turi, balki biror ma’lumot, axborotni ifodalash usuli sifatida ham namoyon bo’ladi. “Shu bois she’riyatdan xabardorlik, shoirlik his-tuyg’u va muayyan dunyoqarashni ifodalash bilan birga ma’lum darajada bilimga ega ekanlikni, savodxonlikni anglatgan” [15; 85]. Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, qadimgi Sharq, xususan, islomgacha bo’lgan davr tarixiga oid yozma manbalarning kam yetib kelganligi yoki ularning kam o’rganilganligi tufayli ayni zamonlarda yashab o’tgan shoirlar hayotining ijtimoiy, siyosiy hamda ma’naviy jihatlari

xususida ma'lumotlar kam uchraydi. Bu esa ushbu davrda yashab ijod qilgan shoirlarning sotsial qiyofasini yaratishda ilmiy aniqlik nuqtai nazaridan birmuncha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. VIII asrda Markaziy Osiyo hududiga islom dinini tarqalishi, shuningdek, Qur'onning ifodalanish shakli she'riyatga yaqin saj' usulida ekanligi she'riyatning nafaqat madaniy, balki ijtimoiy ma'noda ham transformatsiya bo'lishiga olib keldi.

Masalan, qissaxonlik, qasida, masnaviy kabi janrlarning paydo bo'lishi shoirdan tarix, din va boshqa bilimlardan xabardor bo'lishni talab etdi. Natijada ziyoli qatlam orasida shoirlar o'ziga xos sotsial qiyofa kasb etdi. Masalan "Xasrlarda Arab xalifaligida yashab o'tgan shoir Al-Nadim Al-Faxriyning asarlarida tarix, ilohiyotshunoslik, huquqshunoslik, filologiya sohalariga oid ma'lumotlar keltiriladi" [16; 144]

Yuqorida aytib o'tilganidek she'r san'at turi bo'lish bilan birga, muayyan bilimlarni ifodalash shakli sifatida ham namoyon bo'lgan. Aholining savodxonlik darajasi past bo'lganligi bois, esda saqlab qolinishi kerak bo'lgan bilimlar she'r shaklida yod olingan holda avlodan-avlodga uzatilgan. Bu ma'noda shoirlar kerakli bilimlarni avlodan-avlodga uzatish funksiyasini ham bajarganlar. Rus olimi Bertelsning fikriga ko'ra, boshqa sohaga oid ma'lumotlarning qofiyaga solinishi ularning tez yodda qolishiga sabab bo'lgan. Oqibatda tibbiyot, ilohiyot, tarix kabi sohalariga doir bilimlar ham she'r shaklida yaratilgan. Misol uchun "Ibn Sino yoki Umar Xayyomning tibbiyot, matematika, falsafaga oid asarlari she'riy shaklda bo'lgan" [17; 106].

Shuningdek, Alisher Navoiyning "Majolis-un nafois" asarida tibbiyot, falakiyot, ya'ni astronomiya ilmi bilan mashg'ul bir qator shoirlarning nomlari keltiriladi: "Mavlono Muhammad Husayn tabobatga mashhur erdi, ammo she'r ham aytur erdi. Asru soda va go'l kishi erdi. Mavlono Salohiddin shahar masjidi jome'ida Muluk gumba'zida xodimdur" [18; 145].

Navoiyning mazkur asari temuriylar davrida shoirlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ushbu asar hamda undan keyin yaratilgan tazkiralarga asoslanib, xalqimiz tarixida, madaniyatida shoirlarning o'rni, ularning ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilish mumkin. Navoiyning "Majolis-un nafois" asari nafis majlislar degan ma'noni anglatadi. Ushbu asar sakkiz majlis, ya'ni bo'limdan iborat bo'lib, Navoiydan oldin yashab o'tgan hamda unga zamondosh bo'lgan shoirlar haqida ma'lumot beradi. Asarning to'rtinchi, beshinchi, yettinchi, sakkizinchi majlislari, ya'ni bo'limlari Samarqand va Xurosondagi shoir shahzodalar, amirlar va shoxlarga bag'ishlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu ma'lumotlar tahlili o'sha davrlarda shoirlar statusi siyosiy-iqtisodiy elitaga mansublikni anglatgan degan xulosani beradi. Bu o'rinda sharqshunos olim Bertelsning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Fors madaniyatining ta'siri oqibatida temuriylar saroylarida she'rga munosabat o'ziga xos ma'no kasb etdi. Temuriy shahzodalar harbiy san'at bilan birga "Qur'on" yod olish, she'r yozish kabi mashg'ulotlarni ham o'rganganlar" [18; 134].

Amir Temurgacha bo'lgan davrda mo'g'ul xonlari saroylarida ushbu an'ana deyarli kuzatilmaydi. Masalan, Navoiy Temur haqida quyidagi mulohazalarni keltiradi: "Muluk shajarlarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni: Temur Ko'ragon - agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor" [18; 149]. Keyinchalik ham Movarounnahr va Xurosonda shoirlar siyosiy elitaning o'ziga xos madaniyat belgisi sifatida namoyon bo'lishini kuzatish mumkin: "Sayid Ahmad Mirzo-Salim tab' va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g'azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g'azal tavrada devoni bor. Va masnaviy tavrada «Latofatnoma» aningdur" [19; 53].

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, aynan ushbu davrda shoirlar ijtimoiy status sifatida jamiyat ierarxiasining yuqori bo'g'inidan joy olgan. Zero, siyosiy va madaniy elitadan muayyan darajada she'riyatdan xabardorlik talab etilgan. Natijada shoirlarning sotsial qiyofasi muhim ahamiyat kasb etgan. Jamiyat ierarxiasidagi yuqori status, ijtimoiy siyosiy faollik mazkur sotsial qiyofaning ajralmas belgisi sifatida qabul qilingan. Bu ma'noda Sulton Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi podshoh shoirlar har ikki jihatdan ham iste'dodlarini namoyon eta olishgan.

Hatto ushbu davrda qozilar, vazirlar, amirlar ham qaysidir ma'noda shoir sotsial qiyofasini o'zida namoyon etgan. Zero, mazkur lavozim kishilari ham o'zlarini ijtimoiy-madaniy elitaga mansub ekanligini ko'rsatish maqsadida she'r yozish orqali she'riyatdan xabardorliklarini namoyon

etganlar. Navoiy tomonidan keltirib o'tilgan quyidagi ma'lumotlar buning yaqqol misoli bo'la oladi: "Mavlono Abdulvahob – donishmand va zufunun kishi erdi va Mashhad shahrida qozi erdi [19; 86].

Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniyderlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi".

Temuriylar davrida vujudga kelgan ushbu an'ana hozirgi O'zbekiston hududida XIX asrgacha davom etib, shoirning sotsial qiyofasi siyosiy- madaniy elitaning o'ziga xos belgisi sifatida saqlanib qoldi. Bu ayniqsa Qo'qon, Xiva xonliklaridagi ijtimoiy-madaniy hayotda yaqqol aks etdi. Ushbu davrlarda tuzilgan tazkiralarda keltirilgan shoirlarning saroy muhitiga yaqinligi, jamiyatdagi statusi, funksiyalari temuriylar davridagi shoirlarning sotsial qiyofasidan deyarli farq qilmaydi. Ushbu jihatlar Fazli Namangoniyning "Tazkirat ush-shuaro", Po'latxon Qayumiyning "Tazkirai Qayumiy" kabi asarlarida aks etgan.

XX asrning boshlarida yuzaga kelgan milliy ozodlik harakati va ma'rifatparvarlik g'oyalari jamiyatda shoirlarning sotsial qiyofasini keskin o'zgartirib yubordi. Shoirlarning statusi, rollari, qadriyatini mo'ljallari o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etdi. Mumtoz adabiyotga xos bo'lgan nozik tablik, saroy doiralariga yaqinlik kabi sifatlar ma'rifatparvarlik, inqilobchilik, kurashuvchanlik xususiyatlari bilan almashildi. Adabiyot, shu jumladan, she'riyat kishilarga ma'rifat ulashish, jamiyatni yangilashda vosita sifatida qabul qilindi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda tabiiyki, shoir, yozuvchilarning roli katta bo'ldi. Jadidlarning ko'zga ko'ringan vakillari shoir, yozuvchilardan ekanligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Jadidlarning asarlari, ularning ijtimoiy faoliyati shoirning jamiyatdagi ijtimoiy roli tubdan o'zgarganligini ko'rsatadi. Ijtimoiy rol va statusning o'zgarishi esa o'z navbatida shoirning sotsial qiyofasini transformatsiya bo'lishiga sabab bo'ladi. Fitratning quyidagi fikrlari jadidlar davrida shoirlar sotsial qiyofasining transformatsiyaga uchraganligini yaqqol tasdiqladi: "Avvallari bo'lganidek saroy majlislarida go'zal yuzlarni madh etib, g'azal bituvchi shoirlardan ko'ra, xalq orasida maktab tuzib, ma'rifat ulashgan kishidan foyda ko'p" [20; 67].

XX asrning 20-yillariga kelib, ijodkorlarning sotsial qiyofasi keskin transformatsiyaga uchradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlar, totalitar tizimning o'rnatilishi, ziyoli qatlamning vakili sifatida ijodkordan yangicha ijtimoiy rol, funksiyalar, hamda qadriyatini mo'ljallarni talab qildi. Ushbu davrda ijodkorning jamiyatdagi roli dominant sinf proletariat manfaatlaridan kelib chiqib baholandi. Bu g'oyaning nazariyotchilari sifatida "formal" maktab vakillari: Yu.N.Tinyanova, V.B.Shklovskiy, B.M.Eyxnbau kabi olimlarni keltirish mumkin. Mazkur olimlarning fikriga ko'ra, ijodkorning jamiyatdagi funksiyasi ijtimoiy-siyosiy voqelikdan kelib chiqqan holda belgilanadi. "Formal" maktab vakillari ijtimoiy-siyosiy voqelik deganda, materialistik dunyoqarash ilgari surgan ishlab chiqarish munosabatlarini tushunmaganlar. Yuqorida sanab o'tilgan omillar ijodkorning sotsial statusini belgilashda asos sifatida ko'rsatildi.

Ijodkor sotsial qiyofasini belgilashda ushbu davrga xos bo'lgan yana bir xususiyat, davlatning asosiy buyurtmachi sifatida maqomga ega bo'lishidir. 1934 yilda sobiq Ittifoqning barcha mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham Yozuvchilar uyushmasining tashkil etilishi shoir, yozuvchilarning o'ziga xos intellektual qatlam bo'lib shakllanishiga, yangicha sotsial qiyofa kasb etishiga asos bo'ldi. Iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan davlat himoyasiga olinishi shoir sotsial statusining ijtimoiy mavqeyini oshirdi. Ijod jarayonini doimiy nazoratda bo'lishi esa shoirdan hukmron mafkuraning targ'ibotchisi, tarbiyalovchi kabi sotsial funksiyani talab etdi. Natijada shoir o'ziga xos status, funksiya, qadriyatini mo'ljallar boshqacha qilib aytganda sotsial qiyofaga ega bo'ldi. Ushbu shakldagi sotsial qiyofaning 1990-yillargacha, qaysidir elementlari esa bugungi kungacha saqlanib qoldi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, ijodkorlarning sotsial qiyofasi ularning jamiyatdagi statusi, rollari ijtimoiy-siyosiy faolligi, qadriyati mo'ljallari kabi ko'rsatgichlar bilan belgilanadi. Mazkur sotsial qiyofa kishilik jamiyatining turli davrlarida turlicha baholangan. Chunki insoniyatning tarixi davomida san'atga, adabiyotga munosabat birday bo'lmagan. Bundan tashqari G'arb va Sharq jamiyatlaridagi mental xususiyatlar, muayyan tarixiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar ham, san'at, adabiyot, shoirga nisbatan turlicha munosabatni talab qilgan.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ильин И.А. Понятия монархии и республики. М., 1994. С.89.
2. Платон. Лисис, 214а. Полн.собр.соч. М., 1929. Ч.1У. С.251.
3. Платон. Государство // Сочинения. В 3 т. М.,1971.Т.3.Ч.1.С.318.
4. Аристотель. Поэтика. М., 1957. С.45.
5. Гилберт К., Кун Г. История эстетики. М., 2000. С. 139
6. Kavolis V. Social evolution of the artist enterprise. / In: Research in sociology of knowledge, sciences and art. Vol.11. JAIPressInc., 1979. P.166
7. Гайденко П.П. Эволюция понятия «наука». М., 1980. С.516.
8. Сидней Ф. Оправдание поэзией. / В кн.: Эстетика Ренессанса. Т.2. М., 1981. С.276.
9. Художественная культура в капиталистическом обществе. Л., 1986. С.53.
10. Художественная культура в капиталистическом обществе. Структурно-типологическое исследование / Науч.редактор проф. М.С.Каган. JL, 1986. С. 67.
11. Haskell F. Patrons and painters. A study in the relations between Italian art and society in the age of the baroque. London, 1963. P.83.
12. Ротенберг Е. Искусство Голландии ХУН в. М., 1971. С.35.
13. Речи и письма живописца Луи Давида. М.-Л., 1933. С.74.
14. Ауэрбах Э. Мимесис. М., 1976. С.475.
15. Е.Э.Бертельс. Суфизм ва суфиская литература. М.: “Наука” 1965 г. С.85.
16. Alisher Navoiy. “Majolis-un nafois”. MAT. Yigirma tomlik. 13-tom. Toshkent: Fan. 1997.
17. Ye.Э.Бертельс. Суфизм ва суфиская литература. М.: “Наука” 1965 г. С106.
18. Alisher Navoiy. “Majolis-un nafois”. MAT. Yigirma tomlik. 13-tom. Toshkent: Fan. 1997. – В. 145.
19. Alisher Navoiy mukammal asarlar to‘plami Yigirma tomlik O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti 13 jild. T.: 1997. 53b.
20. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy asarlar — T.: «Ma’naviyat», 2000. 67 b.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000